

PIRIMQUL QODIROVNING "AVLODLAR DOVONI" ROMANI TARIXIY ROMAN SIFATIDA**Sheraliyeva Zarshoda Otabek qizi**

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

zarshodasheraliyeva22@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.20058410>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan Pirimqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" romanida badiiy tasvir va tarixiy shaxslar xarakter jihatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Tarixiy roman, Pirimqul Qodirov, badiiy tasvir, tarixiy shaxslar, uslub, tarixiy haqiqat

Abstract. This article explores the literary depiction and character aspects of historical figures in Pirimqul Kadirov's novel "Avlodlar dovoni", which has a place in Uzbek literature.

Keywords: Historical novel, Pirimqul Kadirov, artistic depiction, historical figures, style, historical truth.

Аннотация. В данной статье рассматриваются литературные аспекты изображения и характеров исторических личностей в романе Пиримкул Кодиров "Avlodlar dovoni" занимающем важное место в узбекской литературе.

Ключевые слова: Исторический роман, Пиримкул Кадиров, художественное изображение, историческая личность, стиль, историческая правда.

Kirish: O'zbek adabiyotida tarixiy roman jahon adabiyoti ta'sirida jadidlar tomonidan XX asrda shakllandi. Tarixiy roman xalqning o'tmishini badiiy tasvirlash bilan birga ong va tafakkurni shakllantirishda muhim rol o'rin tutadi. Tarixiy voqealar va badiiy to'qimalar uyg'unlashib, avlodlar uzviylik masalasi yoritiladi. Tarixiy romaning poydevori sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini olamiz. Bunda tarixiy voqealar orqali ma'naviyat, xalqning taqdiri va insoniylik g'oyalari ilgari surildi.

Shundan keyin Mirmuhsinning "Me'mor" romani, Oybek, Odil Yoqubov va Pirimqul Qodirov singari yozuvchilar tarixiy romanni takomillashtirdilar. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni", "Ona lochin vidosi" kabi romanlarida tarixiy shaxslar ya'ni temuriyodalalar avlodlarining ichki dunyosi, ruhiyati va tafakkurini jonlantirish ustuvorlik qiladi.

Ayniqsa, o'zbek adabiyotida "Avlodlar dovoni" o'zbek tarixiy romanchiligining yuksak namunalariidan biri. Mazkur asar "Yulduzli tunlar" romanining mantiqiy davomi hisoblanadi.

Yozuvchi Boburning qo'rqmas, jasur va sadoqatli o'g'li Humoyunni sarkarda, otasidek shoir, vatanparvar shaxs sifatida va nabirasi Akbarning "chinakam daho shaxs" sifatida talqin qiladi. Asarda mehr-muhabbat, pok sevgi shijoat tarixiy qahramonlar qiyofasida o'z aksini topgan. Shu boisdan, bu romanni faqatgina tarixiy roman emas, milliy o'zlikni anglash va insoniy qadriyatlarni e'zozlovchi asardir.

Tarixiy romanlarda xayol va haqiqat badiiyat va ilm, obraz va fakt doim bir-birini to'ldirib turuvchi unsurlar bo'lib xizmat qiladi. Asarda "avlodlar" tushunchasi faqat biologik davomiylik emas, balki ma'naviy meros uzviyligi sifatida talqin qiladi. Har bir avlod o'zidan oldingi avlodini ongli yoki ongsizlik natijasida davom ettiradi. Avlodlar o'rtasida to'qnashuvlar, konfliktlar yuz berganligini inobatga olsak, bu asarni ijtimoiy-psixologik asar sifatida ham talqin qilishimiz mumkin.

Roman yaratilishiga nazar tashlasak, asar 80-yillarda yozilgan. Humoyunga qarshi Sayid Halil kabi amaldorlar va inilari taxt uchun kurashgan Komron Mirzo, Askariy va Hindol Mirzolarga qarshi kurashishga to'g'ri keladi. Shunga qaramasdan Humoyun otasidek adolat bilan ish ko'radi. Humoyunga qarshi fitnachilar turli xil hiylalar bilan uni Hindistondan haydaydi.

Keyin u Erondagi Safaviylar davlatiga borishga majbur bo'ladi. O'g'li Akbar esa inisi Komron Mirzo qo'lida Sayid Halil gapi bilan qurshovda ya'ni dushman qo'lida qoladi. Shunga qaramasdan shoh Tahmasp qo'shini bilan inisini yengadi va Akbarni qutqarib, inilari bilan yarashadi. Inilari bilan qaytadan Hindistonni tiklayotgan bir vaqtda, Sherxon va uning avlodlariga qarshi kurashadi. Ko'p o'tmay vafot etadi va o'ziga o'xshab 13 yoshida o'g'li Akbar taxtga o'tiradi.

Otasining amaldorlari, xizmatkorlari bu taxtga o'tirganidan keyin hiylalar ishlata boshlaydi. Otasining xos amaldorlaridan Bayramxon Akbarga davlat ishlarida yo'l-yo'riq ko'rsatishadi. Akbar otasidek doim xalqning arzini eshitadi, muammolarin hal etadi. Soliqlardan jizya solig'ini yig'ishni bekor qiladi. Qurilish ishlariga obdon o'zi boshchilik qilib boshqarib turadi. O'ziga qarshi turgan tashqi va ichki dushmanlari bilan to'xtovsiz kurashadi va ko'plab zafarlar qozonib, muvaffaqiyatlarga erishib, farzandlarining tarbiyasiga e'tibor bermay qo'yadi.

Oxiri to'ng'ich o'g'li Salimni dushmanlari o'zlariga bosh qilib, otasiga qarshi urush qilishga chorlaydi. Qolgan ikkita farzandlari vafot etishadi. Axiri Akbar tushunib yetadi farzandlariga o'ziga berilgan tarbiyadek tarbiya berolmaganini ammo, kech bo'ladi.

Mana shu jihatlari bilan asar o'quvchini o'ziga jalb qilib, qiziqtirib ololadi va mana shu jihati bilan qiymatli asar hisoblanadi. Asarda samimiyat bilan tasvirlangan Humoyun, Xonzodabegim, Hamidabonu, Nuriddin, Akbar va boshqa ko'plab obrazlar kitobxonni o'ziga jalb qilib, qalbidan joy oladi. Yozuvchi o'sha davr muhitini va tarixi haqiqatini sadoqat saqlagan holda jadal va aniq tasvirlab beradi. Pirimqul Qodirov bu ruhiy ichki kechinmalarni psixologik jihatdan tahlil qiladi.

Bu jihati bilan psixologizmni o'zbek adabiyotda dastlabki yangi bosqichini boshlab bergani haqida adabiyotshunoslar ta'kidlab o'tadi. Adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov aytganidek: *"Pirimqul Qodirov o'z tarixiy romanlari orqali nafaqat o'tmishni qayta yaratdi, balki o'zbek xalqining tarixiy xotirasini uyg'otdi"*.

Pirimqul Qodirov tarixiy romanlarida tarixiylik va badiiylik kabi ikki qatlamni uyg'unlashtirib, romanchilkni yangi bosqichga ko'tardi. Asarda Humoyun, Akbar, Tahmasp kabi tarixiy shaxslar bilan bir qatorda oddiy xalq - askarlar, dehqonlar va xizmatkorlar tasvirlangan.

Bu orqali tarixiy voqealarga xalqning ruhini ichki kechinmalarni singdiradi. Asardagi obrazlar ikki xil qatlamda:

Tarixiy shaxslar: Bobur, Humoyun, Akbar, Hamidabonu, Xonzodabegim, Komron Mirzo

To'qima obrazlar: Oddiy xalq vakili, askarlar, dehqonlar va sodiq xizmatkorlar badiiy vosita sifatida kiritilgan.

Agrada Zarafshonning bog'ida gulmohur degan daraxt bor. Bu daraxtlar Navro'z arafasida barglarini birdan to'kadi-yu, g'unchalar birdan qip-qizil gullar ochiladi. Xonzodabegim chavgancho'p o'ynayotganlarni kuzatib turadi. Atrofdagi holat uning ko'ziga har galgidan chiroyli bo'lib ko'rinadi. Inisi Boburni boshidan o'tgan voqealar yetmaganidek jiyani Humoyunni ham boshidan bir qancha voqealar yuz berib, birgalikda boshidan kechiradi. Inisi Komron Mirzo qo'lida jiyani bilan qamalda qolib ketadi. Shunga o'xshash ko'p azoblarni boshdan kechiradi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsam, asarning qismlarida yozuvchi uzoq tarixiy o'tmishni, Humoyunning va uning davomchisi Akbar hayotini tarixiy voqealarni tasvirlagan desak xato bo'lmaydi. Bunga o'xshash tarixiy asarlar har bir kitobxonning joy oladi. Asar orqali inson o'zligini anglashi, vatanparvarlik ruhini va milliylikni anglashga xizmat qiladi. Asar o'quvchini tarixni chuqur anglashga va avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni his qilishga va o'tmishda saboq olishga undashiga hech shubha yo'q. Chunki tarixiy romanlarda ulug' tarixiy shaxslarning ma'naviy qiyofasini tiklash- umuminsoniy, axloqiy-estetik ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. P.Qodirov ishlatgan diologlar ana shunday vazifani bajargan va adib tarixiy shaxslarni "tiriltirgan" katta mahorat egasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov.P. Avlodlar dovoni. -Toshkent: "Yangi nashr", 2019.
2. Begmatov.E. "Tarixiy romanlarda badiiylik masalasi". - Toshkent, 1990.
3. Qosimov.B., Mirvaliyev.S. "O'zbek adabiyoti tarixi". - O'qituvchi nashriyoti
4. Alimov P. "Tarix, shaxs, badiya" Toshkent: O'zbekiston 1991.